

## ARAB YOZUVIDAGI O’ZBEKCHA MATNLARNI O’QISHDA ALISHER NAVOIY DEVONLARINING AHAMIYATI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.6653414>

**Salohiy Dilorom Isomiddin qizi**

filologiya fanlari doktori, professor

Samarqand davlat Chet tillar instituti Yaqin sharq tillari kafedrasи

E-mail: [dsalohiy@gmail.com](mailto:dsalohiy@gmail.com); [dilorumopa1959@umail.uz](mailto:dilorumopa1959@umail.uz).

### ANNOTATSIYA

*Maqolada Alisher Navoiy devonlarining Samarqand davlat Muzeyi-Qo‘riqxonasi Qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan qadimiy, nodir nusxalari haqida ma’lumot beriladi. Qo‘lyozma devonlarning ilmiy tavsifi, matn xususiyatlari, kalligrafiyasi va solishtirma qiyosiy tahlili keltiriladi. Shuningdek, arab yozuvining o’zbekcha she’riy matnlardagi xususiyatlari haquda fikr yuritiladi.*

**Tayanch iboralar:** devon, nusxa, terma devon, qog‘oz, siyoh, matnlardagi tafovutlar, xatoliklar.

### АННОТАЦИЯ

*В статье даётся информация о старинных и ценных рукописях сборников стихов Алишера Наваи, хранящихся в Фондах рукописей Самарканского государственного Музея-Заповедника. Даётся научная характеристика рукописей, описывается своеобразный стиль текстов и каллиграфии, приводится сопоставительный анализ сборников. Также, выражается мнение о своеобразных особенностях арабской письменности в текстах на узбекском языке.*

**Ключевые слова:** сборник стихов, варианты, бумага, чернила, варианты текстов, ошибки.

### ABSTRACT

*The article provides information about ancient and valuable manuscripts of collections of poems by Alisher Navai, stored in the Manuscript Funds of the Samarkand State Museum-Reserve. A scientific description of the manuscripts is given, a peculiar style of texts and calligraphy is described, and a comparative analysis of the collections is given. Also, an opinion is expressed about the peculiar features of the Arabic script in the texts in the Uzbek language.*

**Keywords:** collection of poems, variants, paper, ink, variants of texts, errors.

## KIRISH

Jahon tilshunosligi va komparativistikasining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lmish tekstologiya fani Navoiy qo‘lyozmalarining eng qadimiy va ilmiy-badiiy qimmati yuksak darajada bo‘lgan nusxalarini aniqlash va jiddiy muqoyosa qilishni talab etadi. Albatta, bundan ko‘zlangan asosiy maqsad, Navoiy asarlarining ilmiy-tanqidiy tekstlarini yaratish va takomillashtirishdan iboratdir.

Navoiy asarlari, shu jumladan, uning lirikasi sohasida olib boriladigan tekstologik tadqiqotlar arab yozuvi va uning boshqa tillardagi ko‘rinishlarini o‘ganish uchun uch yo‘nalishda xizmat qiladi: 1) arab yozuvi asosidagi turkiy matnlarni bexato o‘qish va to‘g’ri tushunish malakasini hosil qilish uchun; 2) Navoiy she’riyatining ilmiy-tanqidiy tekstini yaratish va bu asosda shoir lirikasi ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlarini amalga oshirish uchun; 3) bu sohadagi tekshiruvlar bizgacha asosan arab grafikasida yetib kelgan Navoiy lirk merosi yuzasidan olib boriladigan nazariy xarakterdagi ilmiy tadqiqotlar uchun ham jiddiy zamin vazifasini o‘taydi.

Ma’lumki, Navoiy asarlarining qo‘lyozmalari tarqalgan jug‘rofiy nuqtalar Yer kurrasining barcha mintaqalarida uchraydi. Bu nodir boylik avvalo mutafakkir shoir hayotlik davrida Hirot dorulsaltanatiga maktublar bilan murojaat etilib, so‘rab olish natijasida dunyoning ko‘p mamlakatlariga tarqalgan bo‘lsa, keyinchalik, yurtimizga kelgan bosqinchilar tomonidan xorijga sotib yuborilishi sababidan tarqalgan. Ammo, mamlakatimiz kitob ma’xazlarida ham Navoiyning katta hajmdagi nodir merosi bugunga qadar asrab-avaylanib kelinmoqda.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma’lumki, ulug‘ shoirning «Badoe’ ul-bidoya» devoni 1478-1479 yillarda tartib berildi.<sup>1</sup> Bu devonining 1480, 1482, 1484 va 1486 yillarda ko‘chirilgan qadimiy nusxalari ma’lum. Devonning 1478-1479 yillarda Navoiyning shaxsiy qo‘lyozma variantlarida tuzilganligini e’tiborga olsak, uning Parij nusxasi (1480) eng to‘ng‘ich nusxa sifatida e’tirof etilishi mumkin. Navoiy «Munshaot»ida bir maktub joylashtirilgan. Bu maktub mazmunidan podshohning «...Parishon abyotingni jam qilib, Mavlono Sultonali Mashhadiyg‘a yozdurub, hazratimizga yuborg‘il», degan farmoni bo‘lganligini o‘qiyimiz. Lekin, maktub davomida shoir bu vazifani biroz kechroq ado etganligi uchun uzr so‘rab, uni Mavlono Mir Husayn Bovardiyan berib yuborayotganligini yozadi<sup>2</sup>. Bu mulohazalar «Badoe’ ul-bidoya»ning ilk nusxasi uning Sultonali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan Parij Milliy kutubxonasida

<sup>1</sup> Қаранг: Дилором Салохий. “Бадоев ул-бидоя” малоҳати. – Тошкент: ФАН, 2004. Б. 8-18.

<sup>2</sup> Алишер Навоий. МАТ. XX томлик, X1У-т. –Тошкент, 1998, 105-б.

saqlanayotgan qo‘lyozmasi ekanligiga shubha qoldirmaydi. Hazrat Navoiyning hayotlik davrlarida kitobat qilingan bu nodir qo‘lyozmalarining uchtasi xorijda bo‘lsa, bittasi (1486) 2000 yilga qadar O‘zR FA Hamid Sulaymonov nomidagi Qo‘lyozmalar instituda saqlanar edi. Hozir bu mulk Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyiga tegishlidir. Samarqand davlat Muzeyi-Qo‘riqxonasi kitob xazinasida esa “Badoe’ ul-bidoya” devonining Alisher Navoiy vafotidan o‘n bir yildan keyinoq 1511-12 yillarda ko‘chirilgan nusxasi mavjud. Bu nodir nusxa ham tarixiy-ilmiy ahamiyati va xattotlik san’ati namunasi sifatidagi qimmati bilan e’tiborga molik. Muzey qo‘lyozmalar fondida “Badoe’ ul-bidoya” ning debochasi bilan birga ko‘chirilgan uch nusxasi mavjud. Fondda Navoiy asarlarining yigirmadan ortiqroq qo‘lyozmalari bor bo‘lib, ularning aksariyati shoirning devonlaridan iboratdir. Ularning asosiyлари quyidagilardir:

1) **“Badoe’ ul-bidoya”.** *Inv. raqami KP-1587.* Hijriy 917 (mil. 1511-12) yillarda ko‘chirilgan. Kotibining nomi ko‘rsatilmagan. Kitob bir necha marta xususiy mulk sifatida qo‘ldan-qo‘lga o‘tgan bo‘lsa kerakki, bir necha bor ta’mirlangan ko‘rinadi. 98 varaqdan iborat. Muqaddam poygirli bo‘lgan, ammo yillar o‘tishi bilan ko‘pgina varaqlardagi poygirlar o‘chgan.

Mujallad “Debocha” bilan boshlanadi, (1b, 15b) betlar. Afsuski, “Debocha” ning oxiri yo‘q. 1b varaqdagi matndan ham chalaroq holda o‘n qator yozuv qolgan. Kitob sahifalarida matn o‘n qatordan joylashtirilgan. Xat joylashgan sath 9x18,5 sm. Bosh sahifa eni 9, bo‘yi 7,5 sm bo‘lib, lavha bilan ochiladi.

Handasaviy usulda yaratilgan lavhaning asosini (fonini) safsar rang tashkil etadi. Unga zarhal naqshlar solingan. Matn Movarounnahrning och-sarg‘ish rangli qog‘oziga qora siyoh bilan yozilgan. Sahifalardagi she’rlar bir-biridan zarhal bilan yozilgan “ayzan lahu” (bu ham uniki) kabi so‘zlar bilan ajratilgan. Kitobning barcha varaqlarining chetlari uringan, dog‘li. Muqovasi mag‘ziy. Uning oldingi qismi yo‘qolgan. Faqat qizg‘ish xom teridan yasalgan asosi va orqa tomoni saqlanib qolgan. Muqova yasalgan paytida unga turli rangli qog‘oz qoplangan hamda uchtadan bosma naqsh bilan bezatilgan bo‘lgan.

Devon 349 g‘azal, 3 musta’zod, 3 muxammas, 2 musaddas, 1 tarje’band, 3 ruboiy va 3 fard janridagi she’rlarni o‘z ichiga oladi. Jami 364 she’rdan iborat. Demak, “Badoe’ ul-bidoya” dan nusxa ko‘chirgan kotib she’rlar sonini ancha qisqartirgan. Chunki, asl nusxada g‘azallar soni 777 bo‘lib, jami she’rlar soni 1046 tadir. Devonning g‘azallar qismi mazkur muzeydagi nusxada:

*Chaman otashgahig ‘a otashin guldin chu o‘t urding,  
Samandardek ul o‘tdin kulga botti bulbuli shaydo*

bayti bilan boshlanadi. Bu asl nusxadagi ikkinchi g‘azalning ikkinchi baytidir. Asl nusxa bilan solishtirganda “otashgahiga - otashgahig‘a”, “o‘t solding – o‘t urding” kabi farqlar ham ko‘zga tashlanadi. Ma’lumki, devonning asl nusxasi “Ashraqat ...” bilan boshlanadi.

**2) “Badoe’ ul-bidoya”.** *Inv. raqami KP-4549.* Devon 302 varaqdan iborat, hajmi 16x26. Uning “Debocha” si 23 varaqqa (45 bet) joylashtirilgan. She’rlar qismi 279 varaqni tashkil etadi. Kitobga g‘azal, muxammas, musaddas, tarji’band janridagi she’rlar kiritilgan.

Devonning g‘azallar qismi “Ashraqat ...” bilan boshlanadi. Oxiri esa:

*G‘unchadek qon bog‘lanibdur ko‘nglum, ey gul xirmani,*

*Borg‘ali ko‘z jo‘yboridin jamoling gulshani*

Matla’li g‘azal bilan tugaydi. Bu g‘azal “Badoe’ ul-bidoya” ning asl nusxasidagi 777 g‘azalning 727-sidir.

Devonni ko‘zdan kechirar ekanmiz, kotib kitobat qilayotganda “Badoe’ ul-bidoya” ni asos qilib olgan bo‘lsa-da, Hazrat Navoiyning boshqa devonlariga kirgan she’rlardan ham foydalangan. Biz tavsif etayotgan devonda shoirning yetta yettita muxammasi kiritilgan. Bular – *Laylatul me’rojning tarhi sochin tobindadur*, deb boshlanuvchi Mavlono Lutfiy g‘azaliga muxammas hamda “judo”, “koshki”, “yigit”, “qilmading”, “oqibat”, “o‘rtading” radifli muxammaslardir. “Badoe’ ul-bidoya” ning asl nusxasida esa beshta muxammas mavjud bo‘lib, ular tarkibida Lutfiy g‘azaliga muxammas, “judo”, “oqibat” radifli muxammaslar uchrasa-da, boshqalari uchramaydi. Ular “Xazoyin ul-maoniy” ga kiruvchi devonlarda mavjud. Masalan, “o‘rtading” radifli muxammas “G‘aroyib us-sig‘ar” dan, *Subhidam maxmurliqtin tortibon dardi sare*, deb boshlanuvchi musaddas ham shu devondan, “koshki” radifli muxammas “Navodir ush-shabob” dan, “yigit”, “qilmading” radifli muxammaslar esa “Favoyid ul-kibar” dan joy olgandir. Shoirning Husayniy g‘azaliga bog‘lagan “meni” radifli musaddasni “Badoe’ ul-vasat” tarkibida ko‘ramiz. Tavsiflanayotgan devonga uchta tarji’band kiritilgan. Ulardan “Xarobot aro kirdim oshuftahol, May istarg‘a ilgimda sing‘on safol” va “Yodingni qilay harifi majlis, Fikringni etay ko‘ngulga munis” tarje’li she’rlar “Badoe’ ul-bidoya” ning asl nussxasida mavjud bo‘lsa, “Yana mug‘ dayrig‘a kirdim sarmast, May tut, ey mug‘bachai bodaparast” bayti takrorlanuvchi tarjiband unda yo‘q. Bu she’r “Favoyid ul-kibar” dan joy olgan. Afsuski, kitobning oxirgi varaqlari mavjud bo‘lmaganligi sababli kotibning ismi sharifini va devonning kitobat qilingan sanasini aniqlashning imkonni bo‘lmadi.

**3) Terma devonlar.** Muzey Qo‘lyozmalar fondida Alisher Navoiy she’rlaridan tuzilgan va ora-sira, bitta-yarimta boshqa shoirlar asarlari aralashib qolgan o‘n beshta

terma devon mavjud. Bu devonlarning aksariyatida kitobat sanasi va kotibining nomi noma'lum. Sanasi va kotibining nomi aniqlangan qo'lyozmalar asosan XIX asr oxirlariga to'g'ri keladi. Masalan, 292 varaqdan iborat hijriy 1288 (mil.1871) yilda ko'chirilgan qo'lyozmaning kotibi Mirza Nasriddin Devzirakori valadi Mirzo Nosir Buxoriy bo'lib, o'Ichovi: 15,5x25 sm. Muqovasi mag'ziy, qirmizi qig'oz qoplangan, kichik tamg'alarida "Amali Mullo Oshur Muhammad Sahhof" so'zлari bitilgan. Birinchi betda zarhal lavha bor (6x10 sm). Matn ikki ustunda 13-14 qatordan joylashtirilgan hamda zarhal, qirmizi, pistoqi chiziqlardan iborat jadvalga olingan. Siyohining rangi qora. Devonda g'azallar "Ashraqat" bilan boshlanadi. Oxiri:

*Ey Navoiy, sen dag 'i qilsang tama' sayri Hijoz,*

*Qil Iroq ohangi, tark aylab Xuroson men kibi*

bayti bilan tugaydi. Bu bayt "Navodir un-nihoya" dagi 816-g'azalning maqta'sidir. Shundan so'ng shoirning ikkita musta'zod va 76 ruboiy janridagi asarlari ko'chirilgan. Devon tugagandan so'ng kitobda "Hall lug'ati" (5 bet), "Sabotul-ojizin" (73 varaq), "Devoni Bedil" (72 varaq) keltirilgan. Bular ham shu yili kitobat qilingan.

## XULOSA

Navoiyning yuksak insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan asarlariga bo'lgan ma'naviy ehtiyoj kundan kunga oshib borayotganligi ayon. Bu ehtiyoj o'z navbatida shoirning minglab nusxalardagi nodir qo'lyozmalarini topish va ilmiy o'rganish mas'uliyatini yuklaydi. Arab yozuvida ko'chirilgan Navoiy nodir devonlari matnlarini bexato o'qish uchun esa bevosita arab yozuvining o'zbek tilidagi o'ziga xosliklari haqida, arab tilidan turkiy tillarga kirib kelib, o'zlashgan so'zlar etimologiyasi haqida ham tasavvurga ega bo'lish zarurligini nazarda tutmoq lozim. Bu sohada Navoiy devonlari tajriba maydoni uchun samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Алишер Навоий. МАТ. XX томлик. 1-У1, X1У-тт. – Тошкент, 1987-1990.
2. Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар. 2 томлик. Тошкент, 2002. 508 бет.
3. Салоҳий Д. Бадоев ул-бидоя малоҳати. – Тошкент, 2004.
4. Бадоев ул-бидоя. (Инв.рақами КП-1587).
5. Бадоев ул-бидоя. (Инв.рақами КП-4549/1).
6. Терма девон. (Инв.рақами КП-4549/1).
7. Терма девон. (Инв.рақами КП-5136/2).
8. Тухтасинов, И. М. (2011). Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского

языков). Автореф. дисс.... канд. филол. наук. Ташкент: УзГУМЯ.

9. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Modern views on the problem of distance and traditional methods of teaching italian language in higher education institutions. Society and Innovation, 2(2), 111-117.

10. Tukhtasinov, I. M., Muminov, O. M., & Khamidov, A. A. (2017). The days gone by. Novel by Abdulla Qodiriy. Toshkent.

11. Tukhtasinov, I. M. (2018). The structure of the phenomenon of equivalence and its importance for translation strategies. In Modern Romano-German linguistics and new pedagogical technologies in language teaching, Materials of the Republican scientific-practical conference, Samarkand.

12. Тухтасинов, И. М. (2018). Развитие профессиональной компетенции на основе эквивалентности при подготовке переводчиков.

13. Tukhtasinov, I. M. (2017). Discursive approach in the training of translators. In Mat. International scientific and creative forum" Youth in science and culture of the XXI century". Chelyabinsk: Chelyabinsk State Institute of Culture (pp. 229-231).

14. Тухтасинов, И. М. (2012). Национально-культурная специфика сложных слов, выражающих внешность и характер человека, в английском и узбекском языках. Вестник Челябинского государственного университета, (2 (256)), 122-125.

15. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Современные взгляды на проблему дистанционного и традиционного методов обучения итальянскому языку в высших учебных заведениях. Общество и инновации, 2(2), 111-117.

16. Тухтасинов, И. М. (2017). Дискурсивный подход в обучении переводчиков. In Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в. (pp. 229-231).

17. Тухтасинов, И. (2021). Таржимоннинг касбий компетенцияси ва фаолият функциялари. Иностранный язык: литература, образование, (3 (80)), 5-10.

18. Тухтасинов, И. (2021). Особенности формирования учебного процесса в системе высшего образования Узбекистана в условиях Covid-19. Иностранный язык: язык, литература, образование, (1 (78)), 11-18.

19. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In Язык и культура (pp. 226-231).

20. Tuxtasinov Maqsadjon Murodjon O‘G‘Li (2020). San’at va madaniyat sohasi talabalari bilimlarini nazorat qilishda nostandard testlarning afzalliklari. Oriental Art and Culture, (III), 320-325.

21. Тухтасинов, У. М. (2020). ИГРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА. Мировая наука, (3), 498-501.

22. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения

переводческой компетенции. In Язык и культура (pp. 226-231).

23. Tuhtasinov, Ilhom and Lutfilloeva, Fahriniso, The Japanese Language Teaching Technologies Based on Computer Simulation Models (September 10, 2019). Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3458780>

24. Тухтасинов, И. М. (2019). ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИЙ В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ ПЕРЕВОДА. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp. 111-113).

25. Сукиасян, Г. А., Тухтасинов, И. М., Гушул, Ю. В., & Баштанар, И. М. (2019). Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI века: материалы междунар. науч.-творч. форума (научной конференции), 7–8 нояб. 2019 г./сост.: СБ Синецкий (отв. сост.).

26. Тухтасинов, И. М. (2018). Методика выявления эквивалентности слов разносистемных языков в процессе перевода. Бюллетень науки и практики, 4(7), 539-544.

27. Тухтасинов, И. (2017). Жамият тарихининг хозирги босқичида таржимонлар тайёрлашнинг асосий муаммолари. Иностранный филология: язык, литература, образование, 2(4 (65)), 20-24.

28. Тухтасинов, И. (2016). Таржима назариясида тиллараро эквивалентлик тушунчаси ва унинг тадқики. Иностранный филология: язык, литература, образование, 1(4), 26-30.

29. Тухтасинов, И. М. СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СПЕЦИФИКА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ. ББК 74.48 Р 76, 314.

30. Djurayev, D. M. Linguo-cultural Approach to Teaching Foreign Languages. International Journal on Integrated Education, 3(12), 240-241.

31. Джураев, Д. (2021). ХИТОЙ ТИЛИНИ ЎҚИТИШОДА ТАЛАБА ХАРАКТЕРИНИНГ АҲАМИЯТИ. АКТУАЛЬНОЕ В ФИЛОЛОГИИ, 1(1).

32. Джураев, Д. (2020). Талабаларни таълим жараёнида хитой тилига ўқитиш самарадорлигини ошириш методлари. Иностранный филология: язык, литература, образование, (1 (74)), 124-127.

33. Джураев, Д. М. (2017). ИСТОРИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ ОБУЧЕНИЯ И МЕТОДЫ ПРЕПОДОВАНИЯ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКИСТАНЕ. In Актуальные вопросы преподавания китайского и других восточных языков в XXI в. (pp. 84-88).

34. Dilshod, D. (2012). 乌兹别克斯坦与中国重要节日的对比 (Master's thesis, 新疆大学).